

O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati
Республика Узбекистан, Самаркандская область
Republic of Uzbekistan, Samarkand Region

**QISHLOQ JOYLARIDA KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDA
DAVLATNING XIZMAT KO'RSATISH SOHASIGA BO'LGAN TA'SIRI**

Asrorov Uchqun Akram O'g'li
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

**Асроров Учкун Акрам угли докторант базовой докторантуры
Самаркандского института экономики и сервиса**

**Uchqun Akram ogli Basic Doctoral Student at the Samarkand Institute of
Economics and Service**

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirishda davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etishdagi ba'zi muammolari hamda ularning yechimlari bo'yicha muallifning fikrlari keltirilgan. Bundan tashqari, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ham taklif va tavsiyalar keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kambag'allikni kamaytirish, davlat xizmatlari, ijtimoiy dasturlar, ta'lim va kasb-hunarga tayyorlash, sog'liqni saqlash xizmatlari, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalar, mahalliy boshqaruv, ijtimoiy himoya.

The impact of the state on the service sector in reducing poverty in rural areas

Abstract: This article presents the author's views on some of the problems of effective organization of public administration bodies in the field of service delivery in reducing poverty in rural areas and their solutions. In addition, proposals and recommendations are presented for poverty reduction.

Keywords: Poverty reduction, public services, social programs, education and vocational training, health services, small business support, service innovation, local governance, social protection

Влияние государства на сферу услуг в снижении уровня бедности в сельской местности

Аннотация: В статье изложены взгляды автора на некоторые проблемы эффективной организации деятельности органов государственного управления в сфере предоставления услуг по сокращению бедности в сельской местности и пути их решения. Кроме того, представлены предложения и рекомендации по сокращению бедности.

Ключевые слова: сокращение бедности, государственные услуги, социальные программы, образование и профессиональная подготовка, здравоохранение, поддержка малого бизнеса, инновации в сфере услуг, местное самоуправление, социальная защита.

Kirish:

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan so'ng qishloq joylarida aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilib kelinmoqda. Shu maqsadlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga erishish asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki mehnat bilan ta'minlangan aholi o'z daromadlarini oshirib, farovon hayot kechiradi. O'zbekistonda qishloq joylarida aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish borasida qabul qilingan dasturlar va strategiyalar davlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy islohotlar

amalga oshirilib, yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytirilgan. Buning natijasida, aholi bandligi darajasi oshib, kambag‘allik darajasi asta-sekin kamayib bormoqda. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda qishloq joylarida davlat xizmatlari, sog‘liqni saqlash xizmatlari, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va ta‘lim tizimining yaxshilanishi muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida ham yaqin kelajak uchun ulkan rejalar qo‘yildi. Bunga birgina misol tariqasida “O‘zbekiston-2030” strategiyasida respublikamiz hududida 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilgacha esa keskin qisqartirish, kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish kabi nihoyatda muhim marralarga erishish maqsad qilib olinganligini keltirish mumkin.¹ Bundan tashqari Respublikamiz qishloqlarida 2017-yildan beri kam ta‘minlangan, kambag‘al, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 20 dan ortiq Prezident farmon va qarorlari, 30 dan ortiq Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Olib borilayotgan islohotlarning natijadorligini tahlil qilish maqsadida Prezident boshchiligida bevosita mavzusi kambag‘allikni qisqartirish bo‘lgan 20 dan ortiq yig‘ilishlar, videoselektorlar o‘tkazildi. Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, soha ekspertlari o‘rtasida muammoni muhoma qilish maqsadida respublikamizda hukumat darajasida 2 ta xalqaro forum hamda 1 ta “Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik bo‘yicha global muloqot” nomli xalqaro konferensiya o‘tkazildi.²

Adabiyotlar tahlili:

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni

2 https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/1029/796/1572

Yurtimizda qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga hissa qo'shish maqsadida bir qancha mahalliy olimlarimiz tomonidan mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Mahalliy tadqiqotlar orasida O'zbekiston olimlari, jumladan, X. Abdukarimov va Sh. Bo'riyev kabi iqtisodchi olimlarning ishlarini qayd etish mumkin. Ularning tadqiqotlarida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosati, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy dasturlar samaradorligi chuqur tahlil qilingan. Xususan, kambag'allikka qarshi kurashda mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalar jalb etishning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Professor Abbas Tuykulov esa qishloq xo'jaligini isloh qilish mamlakatning kambag'allikni qisqartirish strategiyasida ham muhim o'rin tutadi, ayniqsa aholining salmoqli qismi qishloq joylarda istiqomat qiladi deb ta'kidlaydi. Olim yerdan foydalanish siyosati, suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan foydalanish borasidagi islohotlar mahsuldorlikni oshirish va qishloqlar turmush farovonligini oshirishga xizmat qilishi, boshqaruv organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kooperativlar, kengaytma xizmatlari va qiymat zanjirini rivojlantirish kichik fermerlarni yirik bozorlarga integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega deb aytadi.³ Ko'rish mumkinki, bu olimlarning tadqiqotlarida qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosati, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy dasturlar va turli xil xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligi chuqur tahlil qilingan. Xususan, kambag'allikka qarshi kurashda mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalar jalb etishning ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Xorijiy tadqiqotlar orasida P. Collier, J. Sachs, va A. Sen kabi olimlarning ishlari muhim o'rin tutadi. P. Collierning "The Bottom Billion" asarida kambag'allik chuqurlashishining sabablari va uning oldini olish yo'llari tahlil qilingan. J. Sachs esa o'zining "The End of Poverty" kitobida rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy strategiyalarni ilgari suradi. A. Sen esa kambag'allikni

³ <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/7652/7025>

inson taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omil sifatida ko'rib chiqib, iqtisodiy imkoniyatlar va ta'limga kirish huquqining ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kambag'allik – bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammo ham bo'lib, u jamiyatning har bir qatlamiga ta'sir ko'rsatadi. Qishloq joylarida kambag'allikni kamaytirishda davlat xizmatlarining roli ayniqsa, sezilarli. Buning sababi, davlat xizmatlari orqali aholi turmush sharoitlarini yaxshilash, ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy himoyani ta'minlash mumkin. Davlat xizmatlari aholi farovonligiga muhim ta'sir ko'rsatuvchi ta'lim va kasb-hunarga tayyorlash sohasida muhim ahamiyatga ega. Chunki davlat tomonidan tashkil etiladigan qo'shimcha ta'lim va kasb-hunarga o'qitish dasturlari nafaqat yoshlarni, balki o'rta yoshlilarni ham o'zlashtirish imkonini beradi. Bu esa ularning iqtisodiy salohiyatini oshiradi va kam bo'lsa ham munosib daromad olishlariga yordam beradi. Kambag'allikni qisqartirishda yana bir muhim omillardan hisoblangan qishloq joylarida sog'liqni saqlash xizmatlari kambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki odamlar sog'lom bo'lsa, rivojlanishlari uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Davlat sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash orqali aholining umumiy farovonligini oshirishi mumkin. Sog'lom avlod uchun kerak bo'lgan tibbiy yordam va profilaktika xizmatlari, shuningdek, epidemiyalarning oldini olish choralari kambag'allik bilan kurashishda ahamiyatli hisoblanadi.

O'zbekistonning qishloq joylarida kambag'allikni kamaytirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarda xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora ortib bormoqda. Ushbu tahlil doirasida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari, jumladan moliyaviy, institutsional va infratuzilmaviy yordam shakllari, hamda ularning qishloq aholisining hayot darajasiga ta'siri o'rganildi.

Davlat tomonidan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun ajratilayotgan subsidiya va imtiyozli kreditlar qishloq aholisi uchun yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Misol uchun, so'nggi yillarda kichik tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar evaziga go'zallik salonlari, texnik xizmat ko'rsatish ustaxonalari,

xizmat ko'rsatish markazlari kabi infratuzilmalar barpo etildi. Bu esa bevosita aholi bandligini oshirishga xizmat qildi.

Davlat tomonidan tashkil etilgan "Ayollar daftari", "Temir daftar", "Yoshlar daftari" kabi ijtimoiy dasturlar orqali ehtiyojmand qatlam vakillari xizmat ko'rsatish sohasida o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu kabi mexanizmlar yordamida qishloq ayollari va yoshlari o'z faoliyatini boshlash bilan nafaqat o'zini, balki atrofidagi insonlarni ham ish bilan ta'minlashga erishmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, mavsumiy dehqonchilik daromadlariga qaramlikni kamaytirish, aholini yil davomida barqaror daromad bilan ta'minlash imkoniyati kuchaymoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish faoliyatining mahalliy bozor talablariga moslashuvi aholi ehtiyojlarini mahalliy darajada qondirishga xizmat qilmoqda. Internet tarmog'ining kengayishi, onlayn xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining oshishi qishloq joylarda masofaviy xizmat ko'rsatish, elektron savdo, onlayn konsultatsiyalar kabi yangi faoliyat yo'nalishlarini paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda. Bu esa ayniqsa yoshlar orasida ish bilan ta'minlanishning muhim manbasiga aylanmoqda.

Xulosa:

Yakuniy natijalar shuni ko'rsatadiki, davlatning xizmat ko'rsatish sohasiga ko'rsatgan qo'llab-quvvatlovchi siyosati qishloq joylarida kambag'allik darajasini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Ammo bu boradagi ijobiy natijalarning barqarorligini ta'minlash uchun xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, tadbirkorlikni yuritish uchun qulay muhit yaratishda tizimli ishlash talab etiladi. Bundan tashqari, mahalliy boshqaruv organlari va fuqarolik jamiyati institutlari ham qishloq joylarida xizmat sohasini rivojlantirishda faol ishtirok etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti” — Mamatov A. A., Xurramov A. F., Mamatov M. A.
2. “Davlat iqtisodiyoti va siyosati” — U.V. G‘afurov, M.Sh. Halilov, Sh. Baymuradov.
3. G'oyipnazarov C.B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnatni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish. Dis. ... i.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD). – T.
4. Smith A. Research on the nature and causes of the wealth of nations. In 2 vols. M.: Nauka, 1993. -570 p.
5. 11. Boltabaev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva Sh.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjaev R. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 275 b
6. G'oyipnazarov S.B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnatni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish. Dis. ... i.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD). – T.